

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYRIYEV ELYOR IBRAGIMOVICH

**TALABALARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI KOMPYUTER
IMITATION MODELLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Хайриев Елёр Ибрагимович

Talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar
asosida takomillashtirish 3

Хайриев Элёр Ибрагимович

Совершенствование медиакомпетентности учащихся на основе
компьютерных имитационных моделей..... 23

Хайриев Елёр Ибрагимович

Improving the mediacompetency of students on the basis of computer
imitation models..... 44

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Spisok o'publikovannyyx rabot
List of published works 48

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

XAYRIYEV ELYOR IBRAGIMOVICH

**TALABALARNING MEDIAKOMPETENTLIGINI KOMPYUTER
IMITATION MODELLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.06 – Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8479.raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifaning www.tdpu.uz hamda “ZiyoNet” axborot-ta‘lim portalida www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Qayumova Nasiba Ashurovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliton davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.01.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks: (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-75-87; faks: (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” _____da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

N.A.Muslimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.d., dotsent

N.H.Voxidova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini axborotlashtirish, ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish tizimini takomillashtirish maqsadida kompyuterli imitatsion modellar, multimediali elektron resurslar, virtual ta'lim texnologiyalarni yaratish va ularni joriy etish masalalariga oid ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanib multimediali ilovalarni joriy etishning kreativ texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha bo'lgan davr yangi ta'lim konsepsiyasida¹ ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga etaklovchi muhim faoliyat sifatida e'tirof etilib ta'lim jarayonini modellashtirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlarini loyihalash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida intellektual rivojlanishning elektron resurslarni shakllantirish, pedagogika sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish, kompyuterda media resurslarni raqamli loyihalash, virtuallashtirilgan dasturlari vositasida loyihalashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Virtual ta'lim texnologiyalari, elektron darsliklar, multimediali elektron o'quv majmualardan o'quv jarayonida keng foydalanilishi hamda faoliyat sohalari bo'yicha talabalarga innovatsion bilim berish, kasbiy ko'nikma va malakalarni doimiy takomillashtirib borish multimediali ilovalardan ta'lim jarayonida foydalangan holda malakali va zamonaviy mutaxassislar tayyorlash, bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan soha va tarmoqlarni rivojlantirish, pedagogika oliy ta'lim muassasa(OTM)lari talabalarida mediakompetentlikni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bu esa talabalarining chuqur bilimga ega bo'lishi, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi ma'lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog'liqdir. Shu sababli, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan, jumladan elektron nashr va ta'lim resurslarini yaratish va undan ta'lim jarayonida unumli foydalanishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son farmoni

bosqichga olib chiqish bo'yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish, 2020 yil 5 oktyabr PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2020 yil 27-fevraldagi PQ-4623-sonli "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020 yil 6 oktyardagi PQ-4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022 yil 21-iyundagi PQ—289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024 yil 2-fevraldagi PQ-54-son "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar bir qator tadqiqotlarda amalga oshirilgan bo'lib, ta'limni axborotlashtirish, axborot vositalarini yaratish va ulardan foydalanishning nazariy asoslari M.Aripov, U.Sh.Begimkulov, R.Hamdamiyov, N.I.Taylakov, J.Y.Suyumov, ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik masalalari A.Abdukodirov, M.E.Mamaradjabov, R.R.Eshimov, M.A.Fayziyev ta'limda elektron va mediaresurslar yaratish hamda undan foydalanish masalalari bo'yicha tadqiqotlar G'.G'.Abdullayev, Sh.M.Askarova, B.Boltayev, S.S.G'ulomov, M.Lutfillayev, R.H.Hamdamiyov, F.X.Ishkobilov, M.Fayziyeva, C.Tursunov, T.Isaqulov, T.Shoymardonov, N.A.Fayziyev, M.T.Shodmonqulov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida kompyuterda ishlash, mediaresurslar yaratish va foydalanish, loyihalash, zamonaviy dasturlash texnologiyalari, avtomatlashtirilgan axborot tizimini dasturiy kompleksining elementlarini ishlab chiqish va imitatsion modellashtirishning asosiy konsepsiya va vositalari bo'yicha tadqiqotlar V.P.Dyakonova, N.N.Gorbachyov, A.V.Guseva, Y.S.Izbachkov, V.N.Petrov, G.V.Kalabuxova, V.M.Titov, Y.E.Komkova, T.B.Kavalerchik, N.V.Makarova, YE.I.Kultishev, A.G.Stepanov, V.L.Shirokov, YE.V.Solovyova va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan Hobbs Renee, Buckingham David, Jenkins Henry, Livingstone Sonia, Ellen J. Helsper, McLuhan Marshall, Nance Richard E., Robert G. Sargent, Fishwick Paul A kabilarning tadqiqotlarida ta'lim tizimini loyihalashtirish uchun yangi asosiy profil xususiyatlari, ta'limda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning nazariyasi va metodik masalalari ochib berilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat

pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining «Pedagogik yoʻnalishlar va mutaxassisliklar boʻyicha ilgʻor pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-taʼlim resurslarini yaratish va takomillashtirish, oʻquv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yoʻnalish doirasida bajarilgan. (2021-2024 yy).

Tadqiqot maqsadi talabalarning mediakompetentlikni kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirishga oid resurslar yaratish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish.

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantiruvchi vosita talablari va pedagogik shart sharoitlarini takomillashtirish.

talabalar mediakompetentligini rivojlantirishning dasturiy taʼminotini yaratuvchi texnologiyalarini aniqlashtirish.

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantiruvchi vosita yaratish, ulardan foydalanish metodikasi va samaradorligini takomillashtirish.

Tadqiqot obʻekti sifatida talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish boʻlib, Toshkent davlat pedagogika universiteti, Oʻzbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Qoʻqon davlat pedagogika institutlaridan jami 328 nafar talabalari jalb etildi.

Tadqiqot predmetini talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va belgilangan vazifalarning ijrosini taʼminlash uchun ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, mantiqiy, ilmiy-metodik manbalarni oʻrganish va qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash), sotsiometrik (anketa, test, soʻrovlar, suhbat); bevosita va bilvosita pedagogik kuzatuv; pedagogik tajriba-sinov; natijalarni matematik statistik qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tizimli, informatsion, imitatsion yondashuvlar, mediasavodxonlik, informatsion tahdid, internet xavfsizligi tushunchalariga ustuvorlik berish va imitatsion modellarni yaratishga transformatsiyalash asosida takomillashtirilgan;

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantiruvchi vosita talablari va pedagogik shart-sharoitlarini “experience exchange”, “technical consulting” va “rotation” taʼlim tizimiga adaptatsiyalash, kooperatsiyalash va dasturiy interfeyslarni qoʻllab quvvatlash talablari (didaktik, metodik, ergonomik) aniqlashtirilgan va sinxron-asinxron moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantirishning dasturiy taʼminotini yaratuvchi texnologiyalari mobillik,

integrativlik interfeys dizaynini hisobga olgan holda mediakompetensiyalarni rivojlantirishning dasturiy ta'minotini tahlil qilish, fan va bilimlarni korporatsiyalash asosida aniqlashtirilgan;

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantiruvchi vosita yaratish, ulardan foydalanish metodikasi va samaradorligini MSCM platformasini mazmuni, interaktiv texnologiyalarni qo'llash, interfaol nazorat topshiriqlarini ishlab chiqish va modellashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan mediakompetentlik bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda kompyuter imitatsion modellardan foydalanish texnologiyasi hamda taklif tavsiyalar ishlab chiqqanligi, multimediali ilovalarning tuzilishi va mazmuniga, yaratish mezonlari va bosqichlariga qo'yiladigan pedagogik talablar takomillashtirildi hamda oliy ta'lim muassasalari uchun "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan; oliy ta'lim muassasalari uchun "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fani bo'yicha multimediali ilovalar yaratildi. Oliy ta'lim muassasalarida multimediali ilovalardan foydalanish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fani mavzulariga oid kompyuter imitatsion modellar yaratilganligi, pedagogik dasturiy mahsulotlar ishlab chiqilgan hamda talim olishga tadbiiq etilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammoga falsafiy, metodologik, metodik, psixologik va pedagogik yondashuvlarga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo'llanilganligi; tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarda mediakompetentlikni takomillashtirish uchun multimediali kompyuter imitatsion modellar yaratishga qo'yiladigan talablar nazariy-pedagogik jihatdan asoslanganligi, oliy ta'lim muassasalari uchun "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan o'quv qo'llanma ishlab chiqilganligi, multimediali ilovalar yaratish bosqichlarining mezonlari ishlab chiqilganligi, OTMLar uchun "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan multimediali ilovalar yaratilganligi va undan ta'lim jarayonida foydalanishning metodik asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati multimediali ilovalarni yaratishga qo'yiladigan pedagogik talablar, kompyuter imitatsion modellar yaratishda tayaniladigan didaktik tamoyillar, yaratish bosqichlari hamda mezonlaridan turkum elektron ilovalarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

talabalar mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tizimli, informatsion, imitatsion yondashuvlar, mediasavodxonlik, informatsion tahdid, internet xavfsizligi tushunchalariga ustuvorlik berish va imitatsion modellarni yaratishga transformatsiyalash asosida takomillashtirishga oid takliflari “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7562/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalar mediakompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari (tizimli, informatsion, imitatsion yondashuvlar va kompyuter imitatsion modeli) kengaytirilgan;

kompyuter imitatsion modellar asosida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni “experience exchange”, “technical consulting” va “rotation” kabi interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini tahliliy prognozlash hamda reflektiv ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘zini-o‘zi tahlil qilish, faoliyatni va uning natijalarini nazorat qilishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashning tashkiliy-tuzilmaviy iyerarxiyasining didaktik trayektoriyasini qurish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7562/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning mediakompetentligi rivojlantirishga oid dasturiy vositalar bilan ishlash malakalari rivojlangan;

amaliyot darslari va laboratoriya mashg‘ulotlari natijadorligini oshirishga qaratilgan imitatsion modellardan foydalanish, mobillik, integrativlik interfeys dizayn kabi faoliyatga barqaror ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7562/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning mediakompetentligi didaktik dasturiy ta’minotlarni tahlil qilish va fan va bilimlarni kooperatsiyalash kompetensiyalari rivojlanishiga xizmat qilgan;

kompyuter imitatsion modellar asosida “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish natijadorligi yaratilgan multimediali resurslar asosida pedagogik tahlil komponentlarini sinov ishlarini tashkil etish va integrativ o‘qitish mazmuniga ko‘ra teskari va qayta aloqaga asoslangan raqamli platforma mazmunini to‘ldirish asosida takomillashtirishga oid takliflar “Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo‘llash” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7562/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada talabalarning mediakompetentligi MSCM platformasi foydalanish asosida imitatsion modellar yaratish malakalari rivojlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 3 ta respublik ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 134 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida, kompyuter imitatsion modellar va ularning ta'lim tizimidagi o'рни, kompyuter imitatsion modellar talabalarning mediakompetentligi rivojlantiruvchi vosita sifatida to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Talabalarda mediakompetensiyalarni rivojlantirishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, shu asosda oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy kamolotini ta'minlash uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, talaba shaxsini kasbiy shakllanishining pedagogik asoslarini zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida ishlab chiqish, ularni ta'limga joriy etish psixologik-pedagogik sharoitlarini aniqlash kabi muammolar tadqiqot mavzusini “Talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish (Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash) fan misolida belgilab olinishiga asos bo'ldi.

Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida (OTM)larda talabalarni mediakompetentlikni shakllantirishda, ta'lim jarayonini kompyuter imitatsion modellar asosida tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratish o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash lozimligini ko'rsatdiki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli imitatsion modellar yordamida mustaqil egallashlari, o'zlarida shaxsiy nuqtayi nazarining shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo'lishlarini taqozo etdi.

Mediakompetentlik — bu kritik, ijodiy va analitik fikrlash asosida axborotni baholash, mediakontent yaratish va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash qobiliyatiga ega bo'lgan mediasavodxonlik darajasidir.

Shu sababli, mediakompetentlik, ya'ni talabalarning digital savodxonligi, axborotni tahlil qilish va undan mas'uliyatli foydalanish qobiliyati yanada muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Mediakompetentlikni rivojlantirish ta'lim tizimida dolzarb muammolardan biridir, chunki bu talabalarning shaxsiy va professional hayotida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishimizda Sh.M.Askarovaning "Talabalarning mediamadaniyatini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida", Y.O.Kurbanovning "Mediata'limni rivojlantirishda xorij tajribasi tahlili", D.I.Davronovning "Ta'lim jarayonida media ta'lim tizimidan foydalanishning metodik jihatlari", Sh.Z.Islomovning "Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining mediakompetentligini shakllantirish va oshirish modellari", U.Q.Maqsudov, G.E.Qosimovning "Talabalarda media savodxonlikni oshirishning pedagogik asoslari" kabi olimlarimizning ilmiy ishlar tahlilidan kelib chiqadigan bo'lsak, mediakompetentlikni rivojlantirish talabalarga axborotni tahlil qilish va baholash, digital vositalarni samarali va xavfsiz foydalanish, axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish, shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyat qozonish kabi afzalliklarni beradi.

Mediakompetentlikni rivojlantirishda uchraydigan pedagogik muammolar sifatida: ko'plab o'qituvchilarning mediakompetentlikni rivojlanmaganligi; mediakompetentlikni rivojlantirish uchun o'quv dasturlarida yetarli dars soatlari ajratilmaganligi; ta'lim muassasalarida integrativ texnologiyalar va elektron resurslarning kamligi; mediakompetentlikning ahamiyatini yetarlicha tushunmasligi kabilar keltirilgan.

Mediakompetentlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda talabalarni o'qitish, o'quv dasturlarini moslashtirish va ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish ularning shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyat qozonishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu ko'nikmalarni shakllantirishda kompyuter imitatsion modellar muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kompyuter imitatsion modeli — bu moslashuvchan, o'zgaruvchan, matematik, va interaktiv jarayonlarni kompyuter dasturiy ta'minoti yordamida modellar, sinovdan o'tkazish va taqlid qilish uchun ishlatiladigan media resurs hisoblanadi.

O'quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib dars jarayonini tashkil etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishda kompyuter imitatsion modelning alohida o'rnini borligini isbotlaydi. Ta'lim muassasalarini fanlarini kompyuter imitatsion modellar yordamida tashkil etish o'quv jarayoniga elektron ta'lim resurslarini joriy etishga yordam beradi hamda bu esa o'qitish usullarini, yangi bilim va mediakompetentlik ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Jahonda kompyuter imitatsion modellar yordamida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish borasida ko'plab tadqiqotlar va amaliy ishlar olib borilmoqda. Ushbu bobda xorijiy mamalakatlar kesimida talabalarning mediakompetentligini rivojlantirishdagi ta'lim turlari (STEAM ta'lim, Media literacy project, SimSchool (AQSh), Digital Competence Framework (Dig Comp), Serious Games, Digital Media Production Simulations (Buyuk Britaniya), Media Literacy Programs, E-Learning Initiatives) va ularning qiyosiy jadvali mazmuni keltirilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida keng joriy etilishi

talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga; o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o'zlashtirilishiga; o'quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga; interfaol muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o'qish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga; axborot jamiyati a'zosi sifatida unda mediasavodxonlik shakllanishiga; o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter imitatsion modellar asosida taqdim etish, talabalarda mediakompetensilarni shakllanishi, fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari ta'lim jarayonida talaba va o'qituvchilar uchun mo'ljallangan platforma muhiti, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan texnologiyalar, resurslar va imitatsion modellar vositasida talabalarning ijodiy, analitik va kritik fikrlashini rivojlantirish jarayonlarini ochib beradi.

Kompyuter imitatsion model va kompyuter texnologiyalarining ta'lim tizimiga joriy qilishning bugungi darajasini tahliliga asosan kompyuter imitatsion modeli sohasida ta'lim tizimiga doir yaratilgan ishlarni rivojlantirish, ya'ni mavjud dasturiy vositalardan foydalangan holda ularning ma'lum bir yo'nalishlariga taalluqli tomonlari o'rganilayotganligi va ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalari ko'rilganligini ko'rish mumkin. Kompyuter imitatsion modellar orqali dars jarayonini tashkil etgan mavjud onlayn saytlar va platformalar (Labster, PhET Interactive Simulations, Beyond Labz, OLABs, Science Interactive) hamda ta'lim tizimida dars jarayonlarini kompyuter imitatsion modellar asosida yaratuvchi dasturiy vositalar (Flight Simulators, Medical Simulators, Driving Simulators, Business Simulation Games, Engineering Simulators, Language Learning Simulators, Historical Simulation Games, Environmental Simulators, Virtual Reality (VR) Training Tools, Disaster Response Simulators) ning ta'lim o'rnidagi ahamiyati asosiy mazmuni keltirilgan. Bu platformalar va dasturiy vositalar ta'lim muassasalarida an'anaviy o'qitish usullarini to'ldiradi va talabalarga o'rganish va tajriba o'tkazishning qiziqarli, moslashuvchan va qulay usullarini taqdim etadi.


Shunday qilib, kompyuter imitatsion modellashtirish abstraksiyalash yordamida uning muhim xususiyatlarini ajratib olish, hodisalarning asosiy xarakteristikalarini ifodalovchi farazlarni tanlash va yaxshilash, so'ngra kompyuter imitatsion modelni amaliyot uchun foydali holga kelguncha mukammallashtirishdan iborat bo'ladi.

Kompyuter imitatsion model orqali talabalarda mediakompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagilarni amalga oshira olishi lozim: talabada mediasavodxonlikni paydo qilishda umumiy masalani soddaroq ichki masalalarga ajratib olish; mediamaqсадni aniq ifodalash; imitatsion modellarda ma'lum bir belgi va belgilashlarni tanlash; qaralayotgan imitatsion modelda izohlanayotgan munosabatlarni qayd etish; agar kompyuter imitatsion modelni matematik ifodalash mumkin bo'lsa, unga erishish va uni kengaytirish; kompyuter imitatsion modelni soddalashtirish.

O'quv jarayonida kompyuter imitatsion modeldan foydalanib dars jarayonini tashkil etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarning ongi, nutqi va shaxsiyatini rivojlantirishda, ushbu vositalar alohida o'rni borligini isbotlaydi.

Ta'lim muassasalarini kompyuterlashtirish talabalarning o'quv jarayoniga elektron ta'lim resurslarini joriy etish tizimini takomillashtirishga va o'qitish usullarini yangicha yondashuvlarini joriy etishga hamda yangi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi.

Daniela Radlovich-Chubriloning zamonaviy ta'limda multimedia, piramidasi aks ettirilgan (1.-rasmga qarang).



1-rasm. Zamonaviy ta'limda Daniela Radlovich-Chubriloning multimedia piramidasi

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning tasnifiga oid yaratilgan turkum adabiyotlar o'rganildi. Xususan, xorijiy olimlardan B.Fok, Ed.Krol, M.Payk, D.Gibbons, D.Foks, A.Vestenbug, kabilarning zamonaviy axborot texnologiyalari va ularning tasnifiga oid ishlari, rus olimlari V.G.Abramov, N.P.Trifonov, G.N.Trifonova, A.Faysman, N.D.Vasyukova, V.V.Tyullyayeva, V.E.Figurnov, V.V.Faronov kabilarning informatika va unga daxldor fanlar tasnifiga oid o'quv adabiyotlari, Respublikamiz olimlari A.A.Abduqodirov, M.Aripov, A.A'zamov, A.B.Ahmedov, B.J.Boltayev, U.Begimkulov, F.B.Badalov, V.Q.Qabulov, N.I.Taylaqov, R.R.Boqiyev, A.Haitov, S.I.Raxmonqulova kabilarning uzluksiz ta'lim tizimida "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" va unga oid fanlarni o'qitish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlari, maqola, qo'llanma va darsliklari, laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalari, metodik qo'llanma, ko'rsatmalari va usullari o'rganildi.

Dissertatsiyaning "**Talabalarning mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish metodikasi**" deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish texnologiyasi, talabalarning mediakompetentligini takomillashtirishga oid kompyuter imitatsion modellar yaratish va unga qo'yiladigan talablar hamda talabalarda mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish va joriy etish metodikasi yoritilgan.


Hozirgi kunda ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali o'quv jarayonini tashkil qilish an'anaviy o'qitish uslubiga nisbatan samarali ekanligini ko'rsatmoqda. Bunda talabalarga bilim berishda o'quv materiallarni turli xil

ko‘rinishlarda etkazib berishning imkoniyatini alohida e‘tirof etish kerak. Kompyuterda ovoz, harakat, ko‘rgazmali materiallar integratsiyasi o‘quv jarayonining yangi o‘ziga xos imkoniyatini hosil qiladi, uning takomillashuvi va rivojlanishi talabalarni o‘quv jarayonida faol ishtirok etishni yanada kengaytiradi.

Talabalarda mediakompetentlikni takomillashtirishda kompyuter imitatsion model ko‘rinishida taqdim etilayotgan materiallar talabalar uchun tez va samarali o‘zlashtira oladigan bo‘lishi kerak. Talabalar o‘quv materiallaridan foydalanilayotganida, mavzuning mazmuni, kalit so‘zlar, tayanch iboralarga murojaat qilishi hamda undan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lishi kerak.

Fanlardan amaliy va laboratoriya ishlarini kompyuter imitatsion model orqali tashkil qilish o‘qitish tizimida quyidagi imkoniyatlarni ta‘minlaydi: maxsus barcha laboratoriya jihozlari, ko‘rgazma materiallari, o‘quv qurollari bilan jihozlangan xonalar talab qilinmasligi; laboratoriya ishlarini animatsiyalar bilan ta‘minlanish va ob‘ektlar ustida olib borilayotgan jarayonlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri namoyish qilish; yaratilgan kompyuter imitatsion modellardan ko‘p marotaba foydalanish.

Yuqorida qayd etilgan imkoniyatlarni hisobga olgan holda, ushbu bobda kompyuter imitatsion modelni yaratish texnologiyasi bosqichlari ishlab chiqildi. (2-rasmga qarang).




2-rasm. Kompyuter imitatsion modellar yaratish texnologiyasi bosqichlari

“Axborot texnologiyalarini kasbiy foliyatda qo‘llash” fani darsini kompyuter imitatsion model asosida tashkil qilish ta’lim tizimida juda katta ahamiyatga ega. Kompyuter imitatsion model asosida o‘quv jarayoni tashkil qilinsa, talabalarning mustaqil o‘quv jarayoni tashkil etishda hamda o‘quv jihozlari yetarli bo‘lmagan holda ham o‘tiladigan mavzularni o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi.

So‘ngra kompyuter imitatsion model yaratish va undan foydalanish bo‘yicha asosiy maqsad va vazifalar belgilab olindi. Asosiy vazifalar mazmuni quyidagilardan iborat: “Axborot texnologiyalarini kasbiy foliyatda qo‘llash” fani o‘quv materiallari to‘liq elektron variantlarda, ko‘rgazmali va animatsion vositalar yordamida ta’lim oluvchilarga yetkazib berish; ta’lim oluvchilarga individual ta’lim materiallarini tavsiya qilish va ularning bilimlarini baholash; har bir mavzuga mos nazariy materiallarni, tayanch ibora va tushunchalarni atamalarning izohli lug‘atlaridan foydalanib o‘rganishni tashkil qilish; o‘qituvchilar uchun “Axborot texnologiyalarini kasbiy foliyatda qo‘llash” fani predmetining har bir mavzusi yuzasidan uslubiy ko‘rsatmalar tavsiya qilish; har bir darslarni interfaol usullarda tashkil qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish; talabalar uchun individual topshiriqlar berishni tashkil qilish va ularning o‘zlashtirish darajalarini aniqlash.

Talabalarda mediakompetentlikni takomillashtirishda kompyuter imitatsion modellar talabalarga axborotlarni hosil qilish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va undan foydalanish masalalari haqida bilimlar berishda asosiy darslikka ko‘makchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.


Kompyuter imitatsion modellar yaratishdan oldin uning algoritmini tuzib olamiz.



3-rasm. Kompyuter imitatsion model yaratish algoritmi

Uchinchi bosqichda kompyuter imitatsion model mazmunini aniqlash uchun mundarija tuzib, tavsiya qilinayotgan ma'lumotlar to'plami mazmuni rejalashtiriladi. Natijada "Axborot texnologiyalarini kasbiy foliyatda qo'llash" fanidan 60 ta kompyuter imitatsion model yaratildi. Yuqorida keltirilgan kompyuter imitatsion modellar yaratish algoritmi, talablari, xususiyatlaridan kelib chiqqan holda "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan kompyuter imitatsion modellar yaratildi.

Olib borilgan tajribalardan kelib chiqqan holda, biz talabalarda mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish raqamli platforma yaratish sxemasini ishlab chiqdik.



4-rasm. Talabalarda mediakompetentligini kompyuter imitatsion modellar asosida takomillashtirish raqamli platforma yaratish sxemasi

"Axborot texnologiyalarini kasbiy foliyatda qo'llash" fanidan 60 ta kompyuter imitatsion model asosida raqamli platforma yaratildi hamda dasturiy vositalardan foydalanish mazmuni yoritildi. Dasturiy vositalardan foydalanish mazmuni quyidagilardan iborat:

matnli materiallar Microsoft Word dasturi variantiga o'tkazilib, ma'ruza materiallarini taqdim etishda har bir asosiy savollar nihoyasida eassyquiz dasturi

imkoniyatlaridan foydalanib, test sinovi asosida nazorat ishlari o'tkazish yo'lga qo'yildi.

har bir mavzuga oid o'ziga xos ko'rgazmali materiallar va harakatli (animatsion) ob'ektlar PowerPoint, 3DMAX, Phyton dasturlari imkoniyatidan foydalanib hosil qilindi.

Online raqamli platformaning mazmuni o'zbek tilida, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida bayon qilindi. O'quv materiallari mazmunini bayon qilishda matnli axborotlardan tashqari, grafiklar, rasmlar, slaydlar, animatsiyali materiallar, tovushli va videomateriallardan foydalanildi.

Online raqamli platformada rasmi materiallar Adobe Photoshop va CorelDraw dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib tayyorlangan. Materiallaridan foydalanish, boshqarish uchun maxsus tugmachalari va o'quv materiallaridagi animatsiyali vositalar 3DMAX dasturi yordamida tayyorlandi. Taqdimot materiallarini yaratishda Microsoft Office dasturlari tarkibiga kiruvchi Power Point dasturidan foydalanildi.

Online raqamli platformada ta'lim oluvchilarning olgan bilimlarini baholash tizimi, test topshiriqlari eassyquiz, Phyton, iSpring QuizMaker dasturlari imkoniyatlaridan foydalanib tashkil qilindi.

Ushbu online raqamli platformadan foydalanish uchun quyidagi texnik va dasturiy vositalar bo'lishi kerak: Pentium-IV protsessorli kompyuter, WINDOWS Xp operatsion tizimi, Microsoft Office dasturlari, Internet texnologiyalari, brauzer dasturlari, elektron pochta xizmati va boshqalar.

Ushbu raqamli platformada tavsiya qilinadigan barcha o'quv materiallari ya'ni didaktik materiallar elektron darslikka qo'yilgan talablar asosida tayyorlanadi. Tavsiya etilayotgan didaktik materiallar fanlar bo'yicha eng muhim bo'lgan tushunchalarni, fikrlarni, keltirilgan misollarni, jarayonlarni tushunish va eslab qolishni osonlashtirishga qaratildi.

Raqamli platforma uchun didaktik materiallar yaratishda quyidagi xususiyatlarni e'tiborga olindi: didaktik materiallar mazmuni Davlat ta'lim standartlari (DTS) va fanning o'quv dasturiga to'liq mos kelishi aniqlandi; har bir mavzu to'liq va ishonchli ma'lumotlarni qamrab olindi; o'zini o'z tekshirib ko'rish uchun test va nazorat topshiriqlarining joylashtirildi; uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga etibor berildi; ma'lumotlarni keltirishda tizimli yondashish amalga oshirildi; talabalarning psixologik xususiyatlari, qobiliyati, zehni, fikrlashi, dunyoqarashi kabilar e'tiborga olindi.

